


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning hajmi joriy narxlarda 20 746,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,5 %ga o'sdi. Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi 2022- yil yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 107,0 %ni tashkil qildi.


***Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

2022-2023 yil yanvar-mart oylari uchun Yalpi hududiy mahsulot fizik hajmi va deflyator indeksi dinamikasi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da).



**Yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari Yalpi hududiy mahsulot o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,9 % (yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi – 13,9 %), sanoat – 100,3 % (50,4 %), qurilish – 108,5 % (6,3 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 103,6 % (7,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 103,7 % (5,5 %) hamda boshqa xizmat tarmoqlari – 100,8 % (16,6 %)ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi hududiy mahsulot 6 914,8 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 %ga kamaydi.

O'tgan yilning shu davrida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 6 478,5 ming so'mni va 108,5 %ni tashkil qilgan.

Aholi jon boshiga hisoblangan
Yalpi hududiy mahsulot hajmi
(joriy narxlarda, ming so‘m)




Aholi jon boshiga hisoblangan
Yalpi hududiy mahsulot o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Respublika bo‘yicha 2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi 5 496,4 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,3 %ga o‘tdi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 4 723,4 ming so‘mni va 103,9 %ni tashkil qilgan.

**Yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda
kichik biznesning yalpi qo‘shgan qiymati hajmi**

(mlrd. so‘mda)



2022- yil
yanvar-mart


2023- yil
yanvar-mart

2023- yilda kichik tadbirkorlikning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 46,4 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog‘liq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi


(yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan)



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
Yalpi hududiy mahsulotning ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %da</i>
	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	<i>2023- yil yanvar-mart</i>	
I.Yalpi hududiy mahsulot - jami	19 090,8	20 746,4	101,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 250,1	19 949,8	101,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	840,7	796,6	100,9
II.Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 250,1	19 949,8	101,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 399,2	2 775,3	102,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	10 825,9	11 312,4	101,1
sanoat	9 806,7	10 056,9	100,3
qurilish	1 019,2	1 255,5	108,5
Xizmatlar	5 025,0	5 862,1	102,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 227,9	1 457,0	103,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	918,1	1 088,5	103,7
boshqa xizmat tarmoqlari	2 879,0	3 316,6	100,8

2023- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)




Yuqorida keltirilgan diagrammada ko'rinib turibdiki, xizmatlar sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 2022- yildagi 27,6 %dan 2023- yilda 29,4 %ga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 13,1 %dan 13,9 %ga, qurilish tarmog'ining ulushi 5,6 %dan 6,3 %ga oshdi.

Sanoat sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 53,7 %dan 50,4 %ga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida jami xizmatlar sohasining ulushi 29,4 %ga to'g'ri keldi, jumladan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 7,3 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 5,5 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 16,6 %ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan)



Ma'lumot uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida jami xizmatlar ulushi 27,6 %ga to'g'ri kelgan, jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 6,7 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 5,0 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 15,9 %ni tashkil etgan.

2023- yil uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari


(o'tgan yilgning mos davriga nisbatan % da)



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 13,9 %), sanoatda – 100,3 % (50,4 %), qurilishda – 108,5 % (6,3 %), xizmatlar sohasida – 102,0 %ni (29,4 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,6 % (7,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 103,7 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 100,8 %dan (16,6 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulotning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



2023- yil yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulot deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 107,0 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlarida – 114,6 %, qurilish sohasida – 113,5 % qayd etildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'raligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.